



EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALAR HISOBI XUSUSIYATLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Misirov Asliddin Mamasobirovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya. Bugungi kun dolzarb masalalardan biri bu eksport-import operatsiyalar bilan hisob-kitoblarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'lib hisoblanadi. Mamlakatimizda so'ngi yillarda qabul qilingan bir qator qarorlar, nizomlar, Markaziy bank yo'riqnomalari eksport-import operatsiyalar bilan hisob-kitoblarni yangi pog'onaga chiqarish vazifalarni belgilab beradi. Maqolada eksport-import operatsiyalari hisobi mazmun mohiyati va hisobini tashkil etish xususiyatlari va ular hisobini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: eksport, import, operatsiya, qaror, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, shartnoma, investitsiya, savdo faoliyati, bojxona tarifi, tovar, yo'ldagi tovarlar, ombordagi tovarlar, hisob-kitoblar.

ОСОБЕННОСТИ УЧЕТА ЭКСПОРТНО-ИМПОРТНЫХ ОПЕРАЦИЙ И ПУТИ ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Мисиров Аслиддин Мамасобирович
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. На сегодняшний день одним из актуальных вопросов сегодня является совершенствование экспортно-импортных операций и расчетов на основе международных стандартов. Ряд решений, постановлений, указаний Центрального банка, принятых в нашей стране в последние годы, определяют задачи вывода расчетов с экспортно-импортными операторами на новый уровень. В статье изложена сущность содержания учета экспортно-импортных операций и особенности организации учета, а также выводы и предложения по совершенствованию их учета.

Ключевые слова: экспорт, импорт, операция, решение, хозяйствующие субъекты, договор, инвестиции, торговая деятельность, таможенный тариф, товары, товары в пути, товары на складе, расчеты.

PECULIARITIES OF ACCOUNTING FOR EXPORT-IMPORT OPERATIONS AND THE WAYS OF THEIR IMPROVEMENT

Misirov Asliddin Mamasobirovich
Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. Currently one of the pressing issues today is the improvement of export-import operations and settlements based on international standards. A number of decisions, resolutions, and instructions of the Central Bank adopted in our country in recent years define the tasks of bringing settlements with export-import operators to a new level. The article outlines the essence of the content of accounting for export-import transactions and the features of the organization of accounting, as well as conclusions and proposals for improving their accounting.

Keywords: export, import, operation, decision, economic entities, contract, investment, trade activity, customs tariff, goods, goods in transit, goods in stock, calculations.

Kirish.

Jahon moliyaviy inqiroz sharoitida eksport-import operatsiyalarni, ya'ni tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish jahon bozorining aktiv ishtirokchisi hamda sub'ektning bosh maqsadidir. Bu bevosita korxonalar, firma mahsulotlarining jahon bozoriga chiqishi va uni band etishi, o'z xaridorini topishida korxonalar istiqbolini belgilashi, faoliyati natijaviyligini o'stirishning muhim omili sifatida qaraladi. Hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda eksport-import operatsiyalari hisobini yuritishda qator noaniqliklar mavjud va ularni hal etish jahon moliyaviy inqirozi sharoitida hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

24.02.2020-yildagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi (Qaror, 2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va 07.05.2020 yildagi PQ-4707-son "Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi (Qaror, 2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari eksport-import operatsiyalar bilan hisob-kitoblarni yangi pog'onaga chiqish vazifalarni belgilab beradi. Bularga:

Birinchidan, eksport-import operatsiyalari hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida takomillashtirish;

Ikkinchidan, eksport-import operatsiyalari hisobini tan olishda muhim xujjatlardan biri shartnomani xalqaro bozor talab etadigan shakl va mazmunda amalga oshirish;

Uchinchidan, eksport-import operatsiyalari hisobini yuritishda akkreditiv operatsiyalar xususiyatlarini o'rganish va xalqaro amaliyotni joriy qilish.

Ushbu yuqoridagi vazifalar eksport-import operatsiyalari va akkreditiv operatsiyalarni xalqaro standartlar asosida tan olish printsiplarini belgilab beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Prezident Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek "barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi – raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish hisoblanadi. Yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Aholi daromadlarini oshirish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun bizga yangi-yangi bozorlar kerak. Uning uchun bozor iqtisodiyoti va davr talablariga mos ko'plab qonun va qarorlarni qabul qilyapmiz" Qaror (2020).

O'zbekiston Respublikasi "Valyuta tartiblari va valyuta nazorati to'g'risida"gi Qonunga asosan tashqi iqtisodiy faoliyat amalga oshiriladi. Valyuta tartiblariga rioya qilish Markaziy bank tomonidan nazorati qilinadi, ushbu bankga kuyidagi vakolatlar yuklatilgan: xorij valyutalari muomalalarining tartibi va faoliyat jarayonlari; rezident va norezidentlar tomonidan valyuta muomalalarini amalga oshirish qoidalari; valyuta muomalalarini hisobga olish, hisoblab hujjatlashtirish va statistikasining umumiy tartibini o'rnatish Qaror (2020).

Xalqaro tartiblar o'z navbatida "Tovarlarning xalqaro oldi-sotdi to'g'risidagi shartnoma" BMT konvensiyasi, A/SONE. 97/18 Annex 1. Va Inkoterms hujjatlariga asoslanadi. Ushbu hujjatlarda: iqtisodiy aloqalarga qulay shart-sharoitlar yaratish, aloqa o'rnatish, shartnomalar tuzish va tegishli tartib va qoidalarni o'rnatish uchun ma'lumotlar va axborotlar bilan ta'minlash; tovarlarni olish va sotishdagi to'siqlardan o'tish, shartnomalar tuzish, tovarlarning turlari, miqdori va grafiklarini belgilash va etkazib berish uchun sharoitlar yaratish (Farmon, 2022).

Egamberdiyeva (2019) Moliyaviy va boshqaruv hisobi o'quv qo'llanmasida: "Xalqaro eksportda to'lov topshiriqnomalar, cheklar, hujjatlashtiriladigan akkreditiv va inkassolardan foydalaniladi". Ochiq schyotga to'lov (clean payment) – sotuvchi tovarni to'lov kafolatlarisiz yetkazib bersa, xaridor to'lov kunida pulni o'tkazadi. Sotuvchi xaridor tomonidan hech qanday kafolat olmaydi. Shuning uchun bunday to'lov shartlari bir mamlakat hududida va bir-birini yaxshi bilgan firmalar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin.

Qurbanov, Misirov, (2019) Moliyaviy va boshqaruv hisobi darsligida akkreditivlar turlari haqida to'liq ma'lumotlar berilgan. ochiq akkreditiv. Bunda xaridor yoki uning banki tomonidan akkreditiv bekor qilinishi mumkin. Bunday usul sotuvchiga hech qanday foyda va kafolat bermaydi; chaqiriqsiz akkreditiv. Bunda akkreditiv eksportchining roziligisiz muddatdan oldin bekor kilinishi mumkin emas va shuning uchun bu usul eng keng tarqalgan; chaqiriqsiz, tasdiqlangan akkreditiv. Bunda xaridor o'z bankiga sotuvchining banki orqali akkreditivni tasdiqlashga ruxsat beradi, ya'ni sotuvchining banki to'lov shartlarini bajarishga kafolat beradi; chaqiriqsiz, tasdiqlanmagan akkreditiv. Bunda sotuvchining banki akkreditiv ochilishi haqida axborot beradi, lekin o'zi tasdiqlamaydi, ya'ni to'lovni kafolatlamaydi. Bu holda majburiyatlarni bajarish mas'uliyatini xaridorning banki o'z zimmasiga oladi.

Jukov (2016) Uchet prodaji produksi i tovarov po vneshnetorgovomu dogovoru: Zudlik bilan etkazib berish deganda, xalqaro amaliyotda bitim tuzilishi bilan boshlanadigan ma'lum muddat tushuniladi. Bu muddat savdo odatlari bilan belgilanadi va 1 dan 14 ish kunigacha muhlatni o'z ichiga oladi. Bunday muddatlarda tovarlar etkazib berish bo'yicha birjalarda, auksionlarda, sotuvchining omboridan sotishlardagi bitimlar amalga oshiriladi.

Norbekov, Misirov, Tashamov (2018) Moliyaviy va boshqaruv hisobi: *Akkreditiv* xaridorning shartnomada ko'rsatilgan muddatda belgilangan emitent-bankda kelishilgan summaga sotuvchi foydasiga akkreditiv ochish majburiyatini nazarda tutami.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'li bilan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar mavjud korxonalar quyidagi yo'nalishlarda xorij kompaniya va firmalari bilan moliyaviy xo'jalik muammolarini amalga oshiradilar:

- savdo-sotiq faoliyati - tuzilgan shartnomalarga asosan xorijdagi sub'ektlarga o'zining tayyor mahsulotlari yoki tovarlarini sotadi yoki ulardan tovarlarni sotib oladilar;

- investitsiya (moliyaviy qo'yilma) faoliyati - kelishilgan holda chet el sarmoyalarini o'zining faoliyatiga jalb qiladi yoki o'zining vaqtincha ortiqcha mablag'larini chet el firmalarining faoliyatiga ulush sifatida beradilar;

- ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish - tuzilgan kontraktlarga asosan chet el firmalarining buyurtmalari bo'yicha ishlarni bajaradilar va xizmat ko'rsatadilar va o'z navbatida chet el firmalariga buyurtmalar beradilar. Ularning bajargan ishlarini qabul qiladilar va xizmatlarini iste'mol qiladilar;

- litsenziya, savdo markalari, dasturlar va patentlarni sotish yoki sotib olish va boshqalar.

Subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, avvalo, bojxona tartibi orqali amalga oshiriladi. Bojxona tizimida davlat chegarasidan o'tadigan tovarlar, ishlar va xizmatlar qo'llaniladigan tartiblar ko'rsatiladi:

- bojxona tarifi (olinadigan yig'imlar, to'lovlar);

- tovar va xizmatlarni chegaradan o'tkazish tartibi;

- kontrabandaga qarshi tadbirlar;

- o'tqaziladigan va kiritiladigan tovarlar, ishlar va xizmatlarning turlari va miqdori.

Tovar va ishlarning nomenklaturasiga asosan quyidagilar tuziladi:

- dastlabki hujjatlarning shakli va uning mazmuni o'rnatilgan xalqaro tartib va qoidaga asosan o'zgartirilgan holda;

- bojxona deklaratsiyasi - tegishli tovarlar, ish va xizmatlarning nomlari, miqdori va qiymati ko'rsatilgan holda;

- xalqaro yukxatlarning o'ziga xos xususiyatlari, mahsus belgilar qo'yilgan holda.

Ushbu faoliyatda asosiy bosqichlardan bittasi tegishli kontraktlarni tuzish, miqdor, baho va tovarlarni etkazib berish tartibi va grafigi hisoblanadi. Chunki ushbu talablarning bajarilishi ustidan tezkor va qattiq nazorat o'rnatiladi.

Bundan tashqari hisoblash jarayoni tashqi iqtisodiy faoliyatda asosiy o'rinlardan birini egallab, bu munosabatlar «Valyuta tartiblari va valyuta nazorati to'g'risida»gi Qonunga asosan amalga oshiriladi. Valyuta tartiblariga rioya qilish Markaziy bank tomonidan nazorati qilinadi, ushbu bankga kuyidagi vakolatlar yuklatilgan:

- xorij valyutalari muomalalarining tartibi va faoliyat jarayonlari;
- rezident va norezidentlar tomonidan valyuta muomalalarini amalga oshirish qoidalari;
- valyuta muomalalarini hisobga olish, hisoblab hujjatlashtirish va statistikasining umumiy tartibini o'rnatish.

Xalqaro tartiblar esa «Tovarlarning xalqaro oldi-sotdi to'g'risidagi shartnoma» BMT konventsiyasi, A/SONE. 97/18 Annex 1. va Inkoterms hujjatlariga asoslanadi. Ushbu hujjatlarda:

iqtisodiy aloqalarga qulay shart-sharoitlar yaratish, aloqa o'rnatish, shartnomalar tuzish va tegishli tartib va qoidalarni o'rnatish uchun ma'lumotlar va axborotlar bilan ta'minlash;

- tovarlarni olish va sotishdagi to'siqlardan o'tish, shartnomalar tuzish, tovarlarning turlari, miqdori va grafiklarini belgilash va yetkazib berish uchun sharoitlar yaratish;

- tovarlarni sotib olish va sotish bo'yicha kamsitishlar (diskriminatsiya)ni tugatish, tomonlarning manfaatlarini ko'zlagan holda xo'jalik muammolarini amalga oshirish;

- shartnomalarni amalga oshirishga sarflanadigan vaqt va xarajatlarni qisqartirish maqsadida ko'rsatilgan shakllarda xarajatlarni hisobga olishda tasdiqlangan «Nizom» qoidalariga amal qilinadi. Yuqoridagi munosabatlarni korxonada faoliyatida to'g'ri va aniq tarzda yuritish, eksport-import muomalalariga doir hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish hamda bu munosabatlarning amalga oshirish jarayonini samarali boshqarish va nazorat qilish uchun eksport-import muomalalarining hisobi va uning tahlilini yuritish lozim bo'ladi.

Eksport-import operatsiyalari buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi – foydalanuvchilarni eksport-import operatsiyalariga oid to'liq va ishonchli moliyaviy hamda buxgalteriya axboroti bilan o'z vaqtida ta'minlashdan iborat.

Mamlakatimizdagi sohaga doir adabiyotlarda va normativ-huquqiy hujjatlarda eksport-import operatsiyalarni tan olishda shartnoma xususiyatlari etarlicha ochib berilmagan. Bu bizning amaliyotimiz uchun zarur ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Shartnoma bir qancha xususiyatlarga ega. Kompaniya shartnomaga muvofiq tovar (ish, xizmatlar)ni xaridorga uzatganda qoplamalarni olishga bo'lgan huquqi yuzaga keladi.

1-jadval

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha hisoblashuv muomalalarida qo'llanuvchi asosiy valyutalar 2019-yil I chorak¹⁷

No	Valyutalarning turlari	Tashqi savdo bo'yicha hisob-kitoblarda salmog'i, % da	Valyutalarning xalqaro miqyosda tan olingan belgilanishi	Valyutalarga nisbatan qo'llanuvchi koeffitsentlar
1	AQSh dollari	40	USD	1
2	Evro	30	EURO	100
3	Yaponiya ienasi	15	JPY	100
4	Buyuk Britaniya funt-sterlingi	8-11	GBP	1

¹⁷ <http://www.fxclub.org/>

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida har qanday tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonada boshqaruv tizimi eksport-import munosabatlari bo'yicha axborot bilan ta'minlashning tegishli tizimiga ehtiyoj sezadi. 1-jadvalda hozirgi kunda xalqaro hisob-kitoblarda eng keng qo'llanuvchi beshta davlatning milliy valyutasini ko'rsatish mumkin.

Tashqi savdo shartnomasining quyidagi to'rt moliya – to'lov shartini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Baho valyutasi;
2. To'lov valyutasi;
3. To'lov sharti;
4. Hisob-kitob shakli.

Shu sababli, mazkur mavzu bo'yicha axborot to'plash, umumlashtirish va qayta ishlashning eng muhim vositalaridan biri – buxgalteriya hisobi va tahlildir. Bundan tashqari, eksport-import muomalalarining holati va harakatini o'z vaqtida hamda to'g'ri hisobga olishi, talqin etishi va ana shu asosda barqaror rivojlana olishi uchun bunday ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning samarali tizimiga ega bo'lishi kerak.

Xulosa va takliflar.

Eksport-import munosabatlarining yangi strategiyasi iqtisodiyotning tarkibiy qismidagi inqirozni engib o'tish, iqtisodiy taraqqiyot va xalqaro mexnat taqsimotida, jahon savdosida yuqori sifatli mahsulotlar bilan ishtirok etish hamda eksport-import munosabatlarini takomillashtirish asosiy vazifalardandir. Buning uchun:

Birinchidan, eksport saloxiyatini tiklash, rivojlantirish va eksport tarkibini yaxshilash. Buning uchun, qisqa fursat ichida eksportga muljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni kuchaytirish, bu erda nafakat xom-ashyomiz va tabiiy resurslarimiz hisobiga balki, ilmiy-texnikaviy bilimlarimiz, arzon ishchi kuchi hisobiga, ishlab chiqarishning ustuvor soxalarini rivojlantirish hisobiga erishish kerak.

Ikkinchidan esa, importni ratsionallashtirish muxim vazifalardan biri bulib, bu erda import siyosati nafaqat aholining turmush tarzi va manfaatlarini ko'zlab, balki iqtisodiyotni yangilash va raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mashinasozlik importida imkon boricha tayyor mashinalar, transport vositalari va texnologik asbob-uskunalari ko'proq foydali qazilmalar qazish ishlari uchun va qayta ishlovchi soxalar uchun sotib olinishi kerak. Importning samarasini oshirilishida yana, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan mahsulotlar o'rnini bosuvchi va kam xarajatlar sarflanadigan (ya'ni, bu erda albatta sotib olish va olib kelish uchun ketgan xarajatlar e'tiborga olinib) mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish ham asosiy yo'nalishlardandir.

Uchinchidan, respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirishdir. Eksport potentsialini kengaytirishda va jahon xo'jaligiga kirishning integratsiya jarayonida, O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlar iloji boricha sifatli va kam xarajat qilingan, jahon bozori shartlari va talablarini qoniqtiradigan darajada bo'lishi shart. Buning uchun esa, asta-sekinlik bilan ichki va jahon ishlab chiqarish andozalari va mahsulotlar sifatini bir-biriga yaqinlashtirish kerak.

Turtinchidan, texnologiyani yangilash va kengaytirilgan ishlab chiqarish saloxiyatini tashkil qilishga chet el investitsiyalarini jalb qilish. Chet el kreditlari uzoq muddatli va katta masshtabli investitsiyalarni ta'minlashning yagona manbasi ekanligi ma'lumdir. Bu masalada aniq bir maqsad sari intilish kerakligini ta'kidlab o'tish lozim.

Ushbu soxalarning o'ziga xos shakllari va tartibga solish uslublari mavjud. Albatta, yuqorida keltirilgan fikr-muloxazalarga, tahliliy qarashlarga hamda nazariy xulosalarga ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor berish, shak-shubxasiz eksport-import munosabatlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar / Лумепамыпа / References:

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020-yildagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

Egamberdiyeva S.R. (2019) Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Fan va texnologiya, 289 b.

Qurbanov Z., Misirov K. (2019) Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 751 b.

Jukov V.N. (2016) Uchet prodaji produktsii i tovarov po vneshnetorgovomu dogovoru. // Buxgalterskiy uchet, №16

Norbekov D., Misirov K., Tashmanov G'. (2018) Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, – 435 b.

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.05.2020-yildagi PQ-4707-son «Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2022-y. PF-198-son «Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiyl mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi;